Bisenbaev Islambek Qaypnazarovich (Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali katta o‘qituvchisi; e-mail: bisenbaevislam@gmail.com)

JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARINING KASBIY FAOLYATI NATIJALARINI MONITORING QILISHDAGI MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy faolyati natijalarini monitoring qilish holati va ularni raqamli texnologiyalar asosida takomilashtirish ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati natijalarini monitoring qilish tizimi raqamlashtirilmagan. Sotsiologik so‘rovnoma natijalari asosida umumta’lim maktablari samarali boshqarishda innovatsion yondashuvlari, tizimlar integratsiyasi va motivatsion mexanizmlardan foydalanish zarurligi asoslab berilgan. Maqola jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy faolyati natijalarini monitoring qilish tizimini takomillashtirish va o‘qituvchilarning motivatsiyalarini oshirishga qaratilgan ilmiy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy faoliyat, raqamli texnologiyalar, monitoring, raqamlashtirish, innovatsion model, so‘rovnoma, motivatsiya, rivojlanish istiqbollari, ta’lim tizimi.*

Бисенбаев Исламбек Кайпназарович (старший преподаватель Нукусского филиала Института переподготовки и повышения квалификации специалистов по физической культуре и спорту; bisenbaevislam@gmail.com)

ПРОБЛЕМЫ МОНИТОРИНГА РЕЗУЛЬТАТОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И ИХ РЕШЕНИЯ

Аннотация. *В статье с научной точки зрения анализируется состояние мониторинга результатов профессиональной деятельности учителей физической культуры общеобразовательных школ Узбекистана и их совершенствование на основе цифровых технологий. Результаты исследования показывают, что система мониторинга результатов профессиональной деятельности учителей физической культуры общеобразовательных школ не цифровизирована. На основе результатов социологического опроса обоснована необходимость использования инновационных подходов, системной интеграции и мотивационных механизмов в эффективном управлении общеобразовательными школами. В статье содержатся научные рекомендации, направленные на совершенствование системы мониторинга результатов профессиональной деятельности учителей физической культуры и повышение мотивации учителей.*

Ключевые слова: *профессиональная деятельность, цифровые технологии, мониторинг, цифровизация, инновационная модель, опрос, мотивация, перспективы развития, система образования.*

Bisenbaev Islambek Kaypnazarovich (Senior Lecturer of the Nukus Branch of the Institute for Retraining and Advanced Training of Specialists in Physical Culture and Sports, bisenbaevislam@gmail.com)

PROBLEMS OF MONITORING THE RESULTS OF THE PROFESSIONAL ACTIVITIES OF PHYSICAL EDUCATION TEACHERS AND THEIR SOLUTIONS

Annotation. *This article provides a scientific analysis of the current state of monitoring the professional activities of physical education teachers in Uzbekistan’s general education schools and explores ways to improve this process using digital technologies. The research findings indicate that the system for monitoring the professional performance of physical education teachers in general education schools is not digitalized. Based on the results of a sociological survey, the necessity of implementing innovative approaches, system integration, and motivational mechanisms for effective management of general education schools is substantiated. The article offers scientific recommendations aimed at enhancing the system for monitoring physical education teachers’ professional performance and increasing teacher motivation.*

Keywords: *professional activity, digital technologies, monitoring, digitalization, innovative model, questionnaire, motivation, development prospects, education system.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatda ta’lim sohasining barqaror rivojlanishi, unda raqobatbardosh va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati samaradorligi sohada innovatsion yondashuvlarni joriy etish darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta’lim tizimini raqamlashtirish, o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridir.

Shu nuqtayi nazardan, sport sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimida ta’lim mazmunini yangilash, raqamli texnologiyalarni joriy etish, amaliyotga yo‘naltirilgan kompetensiyalar tizimini shakllantirish

orqali inson kapitalini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, mavjud tizimdagi tashkiliy, metodik muammolar zamonaviy yechimlarni talab etmoqda.

Bugungi kunga kelib, institut va uning filialari tomonidan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning malaka oshirish jarayonlari barcha hududlarni qamrab olgan. Bir yillik o‘rtacha kontingent 14375 nafar tinglovchini tashkil etgan. 2023-yilda 923 nafar (8,2%), 2024-yilda 1377 nafar (10,9%), 2025-yilda 1140 nafar (13,8%) tinglovchi muqobil malaka oshirish shakli orqali testdan ozod etilgan. Shu bilan birga, umumiy qabulning 10,7%ni tashkil etgan holda, 3440 nafar ishtirokchi VM–355-qarori 19-bandi asosida sertifikat olgan. Dinamikaga ko‘ra, 2023-yil natijalari o‘tgan yilga nisbatan 14,7% o‘sgan, 2024-yilda 32,9%, 2025-yilda esa 35,6% o‘sish kuzatilgan.

O‘zbekiston Respublikasida 6,5 milliondan ortiq o‘quvchilarga ega 10134 ta umumta’lim maktablarida 33213 nafar jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari faoliyat ko‘rsatmoqda [6].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar A.A.Abduqodirov, A.X.Abdullayev, M.Aripov, U.Begimkulov, Sh.S.Axrarov, B.Begalov, F.Zakirova, N.A.Muslimov, M.Lutfullayev, S.Rahmonqulova, N.I.Taylaqov, S.S.G‘ulomov, R.H.Hamdamov, U.Yuldashevlar tomonidan amalga oshirilgan. Bugungi kunda ta’limning turli bosqichlarida pedagogik monitoring tizimini yaratishga urinishlar bo‘lmoqda, pedagogik faoliyatning turli jihatlari Adam Swinyard, Niall Marriott, J.D.Willms. N.Richixina, Y.A.Semina, A.N.Mayorov, V.I.Vovna, N.F. Ilina, Voronsova. Vvedenskiy, Moksheyev, Kazakova, Mozgarevlar tomonidan tadqiq qilingan [4]. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining malakasini oshirish muassasalari faoliyatini o‘rganish va tajribalarni analitik tahlil etish pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini olib borishning metodik tizimini yaratish va amaliyotga joriy etish muammosining dolzarbligi hamda pedagogik jihatdan to‘liq tadqiq qilinmaganligi bir qator yechimini kutayotgan muammolarning mavjudligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qaytatayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 355-qarorning 3-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomda kasbiy faoliyati natijalari (portfolio) – jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyatida erishgan natijalari, tayyorlagan sportchilari va ularning erishgan yutuqlari, o‘quv adabiyotlari va ilmiy-tadqiqot ishlari, ratsionalizatorlik takliflari, patentlar hamda mualliflik guvohnomalari kabi yutuqlarini baholash tizimini joriy etilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 823-qarorda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 2-ilovasi bilan baholash mezonlari qabul qilingan [2]. Maskur qaror asosida maktabda tuzilgan komissiya tamonidan maktabdagi o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati natijalari baholanadi va natijalari bo‘yicha tegishli ustamalar to‘lash bo‘yicha buyrug‘i qabul qilinadi.

Respublika aholisining 25 foizdan ortiq qismiga ta’lim-tarbiya berish va ularni sog‘lomlashtirish ishlarini olib boroyotgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari kasbiy faoliyati natijalarini baholash va baholash natijalari bo‘yicha imtiyozlar berish hamda moddiy rag‘batlandirish uchun ularning faoliyati an’anaviy usuldan foydalanilgan holda baholanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qtivchilari kasbiy faoliyati natijalarini baholash(monitoring) va baholash natijalari bo‘yicha imtiyozlar berish hamda moddiy rag‘batlantirishdagi asosiy muammolarni aniqlash maqsadida olib borildi. Tadqiqotda ijtimoiy-pedagogik va sotsiologik yondashuvlardan foydalanildi.

1. Tadqiqot obyekti va namunasi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati olindi.

2. Tadqiqot metodlari.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo‘llanildi:

So‘rovnoma (anketa): maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy faolyati natijalarini tasdiqlovchi hujjatlarni to‘plash, saqlash va ularni taqdim etishdagi mavjud muammolar va ularni echimi bo‘yicha o‘qituvchilar fikrlarini to‘plash uchun.

Hujjatlar tahlili: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va Sport vazirining buyruqlari hamda jismoniy tarbiya o‘qtuvchilarning kasbiy faoliyati natijalarini tasdiqlovchi normativ-huquqiy hujjatlar o‘rganildi.

Holatlarni kuzatish: maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy faolyati natijalarini baholash jarayonini amaliy ravishda kuzatish orqali olingan ma’lumotlar tahlil qilindi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ijtimoiy so‘rovnoma va pedagogik kuzatish usullari asosida amaliy va nazariy jihatdan olib borildi.

4. Statistik va tahlil usullari.

Olingan ma’lumotlar statistik tahlil usullari - foizli taqsimot, diagrammalar va grafiklar orqali tahlil qilindi. Shuningdek, so‘rovnoma natijalari pedagogik tahlil va korrelatsion bog‘liqliklar asosida yoritildi, bu maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini baholashni optimallashtirish uchun ilmiy asoslarni shakllantirishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati natijalarini baholash va baholash natijalari bo‘yicha imtiyozlar berish hamda moddiy rag‘batlandirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu normativ-huquqiy hujjatlar maktablarda jismoniy tarbiya va sport faoliyatini rivojlantirish, o‘quvchilarning jismoniy tarbiyasini tizimli yo‘lga qo‘yish, ularning sport-dagi qiziqishini rivojlantirish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq amaliyotda maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati natijalarini baholash va baholash natijalari bo‘yisha imtiyozlar berish hamda moddiy rag‘batlandirish qator muammolar kuzatiladi. Jumladan, baholash raqamlashtirilmagan, o‘qituvchilarning normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganganlik darajasi, kasbiy faoliyati natijalarini tasdiqlovchi hujjatlarni to‘plash, saqlash hamda ularni taqdim etishdagi muammolar o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati samaradorligiga va ishlashga bo‘lgan mativatsiyalariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini natijalarini baholash tizimini samarali tashkil etish va raqamli texnolologiyalar asosida takomillashtirish uchun mavjud muammolarni ilmiy asoslangan usullar va modellar orqali aniqlash, tahlil qilish hamda bartaraf etish zarurati sezilmoqda.

1-jadval


Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filialida 2023-yil yanvar–may oylari bo‘yicha kasbiy faoliyat natijalari

Yo‘nalishlar	Yanvar		Fevral		Mart		Aprel		May	
	86	56	86	56	86	56	86	56	86	56
Instruktorlar	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari	-	1	-	-	-	4	-	1	-	-
Trener-o‘qituvchilar	7	34	10	13	16	15	18	8	17	13
Jami:	7	35	10	13	16	19	18	9	17	13
Umumiy natijalar:	**42**		**23**		**35**		**27**		**30**	
Tinglovchilar umumiy soni:	**376**		**337**		**342**		**309**		**318**	

Amalyotda tinglovchilar har qil sabablarga (hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmasi, byurokratik to‘siqlar, axborot madaniyati) ko‘ra kasbiy faoliyatida erishgan natijalari (portfolio) tasdiqlovchi hujjatlarni to‘lay olmasligi mumkin. Hujjatlarni vaqtida taqdim etilmaganda ular hisobga olinmaydi [3]. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilar kasbiy faoliyatida natijalarga erishgan bo‘lishi mumkin likin ularni taqdim etish bilan bog‘liq moamolar ham mavjud. 1-jadvalda Farg‘ona filialida 2023-yil yanvar-may oylari tinglovchilarining kasbiy faoliyat natijalari ko‘rsatilgan [5]. Bunda jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning ko‘rsatkishlari trenerlarga nisbatan kamligini ko‘rish mumkin. Farg‘ona filialida 2023-yil yanvar–may oylari ba’zi tinglovchilar turli sabablarga bog‘liq ravishda kasbiy faoliyatida erishgan natijalari (portfolio) tasdiqlovchi hujjatlarni vaqtida taqdim qilmagan bo‘lishi mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarning kasbiy faoliyatida erishgan natijalari(portfolio) baholashda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda bu ko‘rsatkishlarni oshirish imkoniyati mavjud.

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyati natijalarini tasdiqlovchi hujjatlarni to‘plash, saqlash va taqdim etish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash maqsadida 2025-yilning sentyabr-dekabr oylarida empirik tadqiqoti o‘tkazildi. O‘tkazilgan tadqiqotda mamlakatning turli hududlaridan jami 180 nafar jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi so‘rovnomada ishtirok etdi, ularning jinsiy tarkibi: 70% erkak va 30% ayollar. Pedagogik malaka toifasi bo‘yicha: 45% oliy toifa, 23% birinchi toifa, 18% ikkinchi toifa va 14% toifasiz (1-rasm).



1-rasm. So‘rovnomada ishtirok etgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining jins hamda pedagogik malaka toifasi bo‘yicha tarkibi.


So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati natijalarini baholash va baholash natijalari bo‘yisha imtiyozlar berish hamda moddiy rag‘batlandirish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlari o‘rganganlik holati quyidagicha taqsimlanadi:

53% respondentlar normativ-huquqiy hujjatlari o‘rganish uchun qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasidan foydalanishini bildirgan, 47% respondentlar foydalanmasliklarini bildirgan.

Maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-qarorini o‘rganganlik holati quyidagicha taqsimlanadi (2-rasm).

29% respondentlar qarorni to‘liq o‘rganganligini bildirgan, 54% respondentlar qisman o‘rganganligini, 17 respondentlar qarorni o‘rganmaganligini bildirgan.

Ushbu natijalar maktab maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati natijalarini baholash va baholash natijalari bo‘yicha imtiyozlar berish bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlari to‘liq o‘rganmasliklari ularning kasbiy faoliyatida qilgan mehnati to‘g‘ri baholanmasligiga tasir qiladi. Qilingan mehnatni moddiy va ma’naviy rag‘batlandirmaslik o‘qituvching ish faoliyati samaradorligiga va ishlashga bo‘lgan motivatsiyasiga aks ta’sir ko‘rsatadi.



2-rasm. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati natijalarini baholashga oid normativ-huquqiy hujjatlari o‘rganganlik holati bo‘yicha tahlil.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston umumta’lim maktablari jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati natijalarini baholashda va baholash natijalari asosida imtiyozlar berish hamda moddiy rag‘batlandirish tizimini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda takomillashtirishni talab qilmoqda.

Birinchidan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning malaka oshirish kursi o‘quv dasturi va rejalarni qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Ikkinchidan, o‘qituvchilarning huquqiy, axborot madaniyatini va raqamli texnologiyalardan foydalnish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Uchinchidan, raqamli texnologiyalar asosida jismoniy tarbiya o‘qituvchilarning malaka oshirishining davriyligini taminlash lozim.

Shu yo‘nalishda ilmiy asoslangan raqamli platforma modelni yaratish va uni amaliyotga joriy etish maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati natijalarin baholash tizimini yangi bosqichga olib chiqishi, o‘qituvchilarning ishlash motivatsiyalarni va ta’lim sifatni oshiradi. Sog‘lom va faol avlodni tarbiyalashga, o‘quvchilarning jismoniy va ma’naviy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-qarori.

(2). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 823-qarori.

(3). O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2024-yil 10-iyuldagi 01/1091-A/F-buyrug‘i. Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoni (tizimini) bilan bog‘liq hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida.

(4). Shoymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirishi va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning elektron tizimi. Diss., 2017, 5-bet.

(5). Tishabayev A, Bekov B., Mathoshimov N. Sport boshqaruvi va kadrlar tayyorlashda innovatsion yondashuv. “Sport ilm-fanining dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy-nazariy jurnal, 2023, 1-son.

(6). Hayitov O. Kuchaytirish masalalari. Sport sohasida kadrlar malakasini oshirish tizimining zamonaviy modeli muammolar va yechimlar. “Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimidagi dolzarb muammolar”. 2-to‘plam, Farg‘ona–2025, “Classic” nashriyoti, 2025.

Jumaniyazova Tupajon Alimovna (Urganch davlat Tibbiyot instituti, assistant; tubaxanum@gmail.com)

OLIY TA’LIM MUASSASALARI PEDAGOGLARIDA SALOMATLIK KOMPETENSIYASI: ILMIY ADABIYOTLAR TAHLILI ASOSIDA YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari pedagoglarida salomatlik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalasi ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda pedagog salomatligi muammosining dolzarbligi zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan kasbiy va ijtimoiy talablarning ortishi bilan asoslangan. Ilmiy manbalar tahlili asosida salomatlik kompetensiyasining mazmuni, uning tarkibiy komponentlari hamda pedagog kasbiy faoliyatidagi ahamiyati ochib berilgan. Valeologik, psixosomatik va pedagogik yondashuvlar doirasida salomatlik kompetensiyasining integrativ xususiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari salomatlik kompetensiyasi pedagogning kasbiy barqarorligi, stressga chidamliligi va ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlovchi muhim kasbiy sifat ekanligini ko‘rsatadi. Maqola adabiyotlar tahliliga asoslangan bo‘lib, olingan xulosalar pedagoglar salomatligini saqlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *salomatlik kompetensiyasi, oliy ta’lim muassasalari pedagoglari, kasbiy salomatlik, pedagogik kompetensiya, valeologik yondashuv, psixosomatik salomatlik, sog‘lom turmush tarsi, pedagog kasbiy faoliyati, ta’lim jarayoni samaradorligi.*

Жуманиязова Тупажон Алимовна (Ургенчский государственный медицинский институт, ассистент)

КОМПЕТЕНЦИЯ ЗДОРОВЬЕСБЕРЕЖЕНИЯ У ПЕДАГОГОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ: ПОДХОД НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. *В данной статье на основе анализа научной литературы изучен вопрос формирования и развития компетенции здоровья у педагогов высших учебных заведений. Актуальность проблемы здоровья педагога в исследовании обоснована повышением профессиональных и социальных требований к личности педагога в современной системе образования. На основе анализа научных источников раскрыто содержание компетенции здоровья, ее структурные компоненты и значение в профессиональной деятельности педагога. В рамках валеологического, психосоматического и педагогического подходов обоснован интегративный характер компетенции здоровья. Результаты исследования показывают, что компетенция здоровья является важным профессиональным качеством, обеспечивающим профессиональную устойчивость педагога, стрессоустойчивость и*